

Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi:  
13 mln. 600 ming nafar.

Shundan rasmiy sektorda:  
6 mln. 100 ming nafar

Norasmiy sektorda:  
5 mln. 700 ming nafar

Mamlakatdan tashqarida:  
1 mln. 800 ming nafar

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 48 (16501)  
2022-yil, 20-iyul  
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Yoshlar siyosati**  
2-bet

Dunyoning taqdirini  
yoshlar hal qiladi

**Mahallada yoshlar yetakchisi**  
4-bet

Qishloqlarga  
Wi-Fi o'rnatildi

**Ko'zgu**  
7-bet

Teatr va  
yoshlar



Arxiv foto, plusmidan.uz

## SHAXMATIMIZ TOP-20 TALIKDA

O'zbekiston shaxmat tarixida ilk bor dunyo  
reytingida TOP-20 talikka kirdi!

3-betga  
qarang

# DUNYONING TAQDIRINI YOSHLAR HAL QILADI

Har qanday mamlakatda yoshlarning bilim olib, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur imkoniyatlar izchil yaratilsa, bu kelgusi rivojlanishda katta kuchga aylanadi. Bugungi kunda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 1,2 milliard yoshlar dunyo aholisining 15,5 foizini tashkil qiladi. 30 yoshgacha bo'lganlar 1,8 milliardga yetgan.



**B**u ko'rsatkich yildan yilga ortib borishi kelajakda yoshlar qatlamining o'rnini qanchalik keng bo'lishini anglatadi. Ayniqsa, ularning 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga mansubligi bu mamlakatlarning rivojlanishi bilan birga jahon siyosatidagi o'rniga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning davlat siyosatidagi mavqeyiga qarab, keyingi lider davlatlarni ham, dunyo kelajagini ham bashorat qilish mumkin.

Har bir davlat esa o'z qoidalari va shartlariga ko'ra yoshlar tushunchasiga turlicha ta'rif beradi. Masalan, yoshlar tushunchasi Xitoyda 18-35 yosh, AQShda 18-25, Kanadada 16-28, Rossiyada esa 14-30 yosh deb belgilangan. Bizning mamlakatimizda esa "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, yoshlar tushunchasining qonuniy tarifi o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan katta bo'lmagan shaxslar yoshlar hisoblanishi nazarda tutilgan.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak, bu borada O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida mutlaq birinchi o'rinda turadi. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, bu qatlam mamlakatdan alohida e'tibor talab qiladi. Umumjahon huquq va burchlar, majburiyatlar va ba'zi siyosiy jarayonlar (saylov) haqida gapirganda xuddi shu yosh davrlariga to'g'ri keladi.

Davlatning asosiy o'rinlarda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan masala ham aynan yoshlar siyosatini izchil va mustahkam amalga oshirish. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda nafaqat mamlakatimiz ichidagi, balki butun dunyo bo'ylab tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarimiz ham nazarda tutilgan.

Xo'sh, yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratilmoqda? Ular bilan aynan kimlar shug'ullanadi va ularning faoliyati kimlar bilan bog'liq? Quyidagi ma'lumotlar orqali bu haqda batafsil bilib olishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan va xorijda o'qiyotgan hamda mehnat qilayotgan yoshlar bilan ish olib borish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish

maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi nodavlat-notijorat tashkiloti tashkil etilgan. Bugungi kunda O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Belarus, Belgiya, Buyuk Britaniya, Misr, Latviya, Qozog'iston va Ukrainada vakillari faoliyat yuritib kelmoqda.

Tashkilot o'z faoliyati doirasida ko'plab loyihalarni amalga oshirmoqda. "Yosh Vatandosh", "Iste'dodli yoshlar stipendiyasi", "Xavfsiz migratsiya", "Musofir" xayriya loyihalari shular jumlasidan.

Bugungi kunda chet elda o'qish va mehnat qilish istagida bo'lgan yoshlar uchun respublikamiz bo'ylab "Xavfsiz migratsiya" loyihasi amalga oshirilmoqda. Iyun oyida assotsiatsiya vakillari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlarining bir nechta tumanlarida yoshlar bilan uchrashdi. Uchrashuvlarda chet elda yashash va o'qish davomida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar, xorijga ketish shartlari va imkoniyatlari, mamlakatlar qonunchiligi, yashash davomidagi turli masalalar yuzasidan atroflicha ma'lumot berildi. Yoshlar ham o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi. Vakillar keyingi muloqotlarni tashkil etish va ular bilan hamkorlikni davom ettirish maqsadida o'zaro ma'lumot almashishdi. Iyul oyida assotsiatsiya vakillarining Samarqand va Navoiy viloyatlariga tashrifi kutilmoqda.

Bu boradagi yangiliklarni, yangi loyihalarni siz qo'lingizdagi "Yoshlar ovozi" gazetasi yoki Yoshlar ishlari agentligining rasmiy web-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari orqali bilib boshingiz mumkin.

Yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanish va bu tizim ichida bo'lishingiz uchun sizdan shunchaki xohish talab etiladi, xolos. "Yoshlar ovozi" gazetasi chekka hududlarga ham yetib borayotganiga qarasa, o'ylaymizki, siz bizning faoliyatimizdan bexabar emassiz. Keling, jamoamizga qo'shiling. Orzularingiz sari olg'a qadam tashlang.

Yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanish va bu tizim ichida bo'lishingiz uchun sizdan shunchaki xohish talab etiladi, xolos. "Yoshlar ovozi" gazetasi chekka hududlarga ham yetib borayotganiga qarasa, o'ylaymizki, siz bizning faoliyatimizdan bexabar emassiz. Keling, jamoamizga qo'shiling. Orzularingiz sari olg'a qadam tashlang.

**Ro'za ARTIKBOYEVA,**

O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi



## IMKONIYAT

### YUQORI MALAKALI DAVLAT XIZMATHILARI UCHUN IMKONIYATLAR


Prezidentimizning 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida yuqori malakali davlat xizmatchilarini rag'batlantirishga doir qo'shimcha ijtimoiy kafolatlar belgilangan.

Endilikda davlat organlari, tashkilot va muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini (bakalavriat, magistratura) tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja (PhD va unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja) olgan yosh mutaxassislarining lavozim maoshiga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ustamalar to'lanadi.

Bunda nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini ro'yxati Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan aniqlanadi va uning rasmiy web-saytiga joylashtiriladi hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan oylik ustamalar tatbiq etiladigan ta'lim yo'nalishlari, tor mutaxassisliklar hamda davlat organlari, tashkilot va muassasalar ro'yxati shakllantiriladi.

Oylik ustamalar 2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, ish beruvchi va yosh mutaxassis bilan 3 yilgacha bo'lgan muddatga tuzilgan shartnoma asosida yosh mutaxassisning lavozim maoshiga qo'shimcha ravishda har oy to'lab boriladi.



#### Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Talabgorning imtiyozni taqdim etish yuzasidan ish beruvchiga murojaat qiladi.

Murojaatga talabgorning 3 yilgacha muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi hamda nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini (bakalavriat, magistratura) tamomlaganligi yoki ilmiy daraja (PhD va unga tenglashtirilgan) olganlik haqidagi hujjatlarni ilova qilinadi. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

Murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi. Xususan, arizalar qoida tariqasida o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish (tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda) esa bir oygacha muddatda ko'rib chiqiladi.

# “UNIQUE UZBEKISTAN”

## YOSH FOTOGRAFLAR TANLOVIDA NOHAQLIKLAR MAVJUDMI?



**X**abaringiz bor, Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi tomonidan aprel oyida "Unique Uzbekistan" yosh fotograflar tanlovi e'lon qilingan edi. Dastlab e'londa tanlov may-iyun oylarida o'tkazilishi aytilgan va 30-iyun – Yoshlar kuni bayramida tanlov g'oliblari e'lon qilinishi hamda mukofotlanishi keltirilgan edi.

Lekin bir nechta omillar sabab tanlov muddati iyul oyi oxirigacha uzaytirildi. Tanlovga o'z ijodiy ishlarini topshirgan fotograflar, kuzatuvchilar tomonidan turli fikr-mulohazalar bildirilmoqda. "Bu tanlov g'oliblari yopiq holda aniqlangan, yutuq kimga nasib etishi avvaldan ma'lum bo'lgan" qabildagi gap-so'zlar qay darajada o'rinni? Qanday sabab bilan tanlov muddati uzaytirildi? Shu savollarga javob olish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi axborot va media xizmati mutaxassisi Zarnigor Ubaydullayeva bilan bog'landik.

– Tanlov muddatini uzaytirishimizga ikkita asosiy sabab mavjud, – deydi Zarnigor Ubaydullayeva. – Birinchisi, tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan ishtirokchilarning ko'pchiligi bexabar qolib ketgan, bu tanlov haqida eshitmagan. Tanlov muddati tugadi deb e'lon bermoqchi bo'lganimizda "Buncha tez tugadi,

biz xabarsiz qolib ketdik. Iltimos, tanlov muddatini uzaytiringlar", degan taklif va e'tirozlar ham kelib tushdi. Ikkinchisi, tanlov muddati yakunlanishi arafasida 1000 nafardan ziyod ijodkorlar tanlovga ijodiy ishlarini topshirgan edi. Tashkiliy qo'mita tomonidan yuborilgan ijodiy ishlar ko'rib chiqilganda tanlovga qabul qilishga mos rasmlar yo'qligi, yuborilgan rasmlar nizam talablariga javob bermasligi, rasmlarning sifati juda yomonligi aniqlandi.

Zarnigor Ubaydullayevaning qo'shimcha qilishicha, tanlovda qandaydir ichki kelishuv yoki g'oliblar oldindan ma'lum emas. Kim g'olib bo'lishini tashkilotchilar ham oldindan bilmaydi. Yuqoridagi kabi gap-so'zlarga chek qo'yish maqsadida ijodiy ishlarni xalq e'tiboriga havola qilish, kuzatuvchilar ko'rish uchun instagram ijtimoiy tarmog'ida @unique\_uzb sahifasi yaratilgan bo'lib, bu yerga barcha ijodiy ishlar joylab borilmoqda. Hozirgi kunga qadar 2 mingdan ziyod ijodiy ishlar kelib tushgan. Lekin yuborilayotgan rasmlar nizamda ko'rsatilgan shartlarga javob bermasligi, yo'nalishlar to'g'ri tanlanmagan, sifatsiz rasmlar yuborilayotgani ijodiy ishlarni ko'rib chiqish jarayonida katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Hurmatli ishtirokchilar, ijodiy ishlarni yuborishdan avval tanlovning nizam talablari bilan tanishib chiqing. Ana shunda ortiqcha savollarga o'rin qolmaydi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV.

"Yoshlar daftari" dan

## O'Z SARTAROSHXONAMGA EGA BO'LDIM

Sartaroshlik sohasiga yoshlikdan qiziqaman. Birinchi ishimni oila a'zolarim, amakilarim, ukalarimning sochini olishdan boshlaganman. Shundan keyin sartaroshlikka qiziqishim yanada ortdi. Keyinchalik Shahriyor Qahhorov degan sartaroshga shogird tushganman. Boshida o'sha kishidan sartaroshlik sirlarini mukammal o'rganib, undan keyin Angor tumani "Navbahor" mahallasidagi sartaroshxonalarda ishladim. Mana 5 yildirki, shu hunar bilan shug'ullanib, non topyapman.

Endi esa Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Yoshlar daftari"ga kiritilib, imtiyozli kredit evaziga o'z sartaroshxonamni ochdim. Hozir uch nafar shogird tayyorlayapman. Shogirdlarimni yanada ko'paytirishga, ularning malakasini oshirishga harakat qilyapman. O'tgan yili shogirdimiz Jahongir Ermatov "O'zbekiston sartaroshlar va kosmetologlar" chempionatida birinchi o'rin olib keldi. Natijalari yaxshi. Xudo xohlasa, boshqalarni ham mana shunday chempionatlarga olib borish niyatimiz bor.

Bu bizning "Navbahor" mahallamiz uchun katta yutuq. Keyingi rejalarimiz yana ham ko'proq yoshlarni sartaroshlik sohasiga



**Anvar JALILOV,**  
Angor tumanidagi "Navbahor" mahallasi fuqarosi

jalb qilib, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishdan iborat.

Bugungi kunda daromadim oyiga 2-3 millionni tashkil qiladi. Mijozlarimiz ko'payib qolgan. To'y-marosimlarimiz ham ko'p. Biz yoshlarga zarur sharoitlar yaratib berayotgan Prezidentimizga, Yoshlar ishlari agentligi Angor tumani bo'limiga o'z minnatdorchiligimni bildiram.



## SHAXMATIMIZ TOP-20 TALIKDA

Xalqaro shaxmat federatsiyasi – FIDE tomonidan yuritiladigan jahon shaxmat reytingida O'zbekiston ilk bor kuchli 20 talikka kirishga muvaffaq bo'ldi. 2022-yil iyul oyi reytingiga asosan, O'zbekiston jahon shaxmat reytingida 19-o'rinni egalladi.

Dunyo reytingini mos ravishda AQSh, Rossiya, Xitoy boshqarib bormoqda. Germaniya, Ispaniya, Polsha, Angliya kabi mamlakatlar ham yuqori o'rinlarni qayd etgan. Shunga qaramay, reytingda yurtimiz dunyo shaxmatida o'z o'rniga va natijasiga ega bo'lgan Gruziya, Serbiya, Eron, Italiya, Bolgariya, Ruminiya, Kuba, Turkiya va Argentina kabi davlatlardan yuqori o'rinda bormoqda.

Albatta, bu hali shaxmatdagi natijalarimizning boshlanishi. TOP-10 talikka va undan yuqori o'rinlarga kirish uchun jamoamiz bilan astoydil mehnat qilib, bundan ham yuqoriroq natijalarga erishishga harakat qilamiz. Bugungi yutuq bilan esa barcha yurtdoshlarimizni tabriklaymiz!

@alisher\_sadullaev telegram kanalidan olindi.

# QISHLOQLARGA WI-FI O'RNATILDI

"Mustaqillik" mahallasi Kogon tumanidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og'ir hududlardan biri hisoblanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, mahalla aholisidan davlat tashkilotlariga ko'plab murojaat va arizalar kelib tushadi. Fuqarolar bilan ishlashda oz bo'lsa-da tajribam borligi bois boshqa mahallada istiqomat qiliishimga qaramay, shu mahallaga yoshlar yetakchisi sifatida tanlab olindim. Boshida bir muncha qiyinchiliklar bo'ldi, ammo tez orada mahalla yoshlari bilan til topishib ko'nikib ketdim.



**Shexroz NOROV,**  
Kogon tumanidagi  
"Mustaqillik" mahallasi  
yoshlar yetakchisi

Faqat yetakchilik faoliyatim bilan cheklanib qolmay, aholi bilan muloqot jara-yonlarida ularning muammolari yuzasidan huquqiy ko'mak berib boryapman. Xususan, Navro'z va Eshmatlar qishlog'ida istiqomat qiluvchi fuqarolar Nasiba Tohirova, Shahlo Ramazonova maslahat va ko'rsatgan yo'l-yo'riqlarim natijasida bola pulini qonuniy olib kelishyapti. 1986-yilda tug'ilgan Shahnoza Ro'ziyeva qo'shni Tojikiston Respublikasidan ko'chib kelganiga ancha bo'lgan, 2007-yildan beri shu mahallada muqim istiqomat qilsa-da, hali ham fuqarolik pasportiga ega emas. Tegishli tashkilotlar hamkorligida bu fuqaroning muammosiga ham yechim topdik. Bunday masalalarda xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi deputati, Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi ekanligim ham qo'l kelyapti.

Haftaning har juma kunlari aholi murojaatlari bilan ishlayapmiz. Ularning arzini eshitib, huquqiy maslahatlar berib, amaliy yechim topyapmiz. Shu kunga qadar mahallamizdagi 7 ta qishloqning faqat

bittasi Wi-Fi bilan ta'minlangan edi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning onlayn ta'lim olishida o'ziga yarasha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Fuqarolarning amaliy yordam so'rab qilgan murojaatlari asosida tegishli tashkilotga deputatlik so'rovi yuborilib, ijobiy natijaga erishildi. Jumladan, Allaberd, Eshmatlar, Jaloir qishloqlariga ham Wi-Fi o'rnatildi. Bu borada Xalq qabulxonasi yaqindan ko'mak beryapti.

Fuqarolar bilan uchrashuvlarda asossiz shikoyatlar ham bo'lib turadi. Ba'zan qonunchilikka to'g'ri kelmaydigan vajlar bilan muammoni hal qilib bering, deya shart ham qo'yishadi. Bunday vaziyatlarda ularga muloyimlik bilan huquqiy maslahat berib, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olamiz. Masalan, Hamro Shari-pov mahalla hududidan savdo do'koni ochish uchun yer so'radi. Unga javoban yoshlar yetakchisi yoki deputat yer ajratilishida ko'mak berolmasligini, tegishli tartibda belgilangan joydan auk-sion orqali yer olishi mumkinligi tushuntirildi. Bundan tashqari, ayrim fuqarolarda boqimandalik kayfiyati hali ham borligi meni taajjublantiradi. Afsuski, "menga davlat qilib berishi kerak", degan tushunchaga ega insonlar ham bor.

Bu dunyoda eng to'g'ri taqsimlangan narsa bu aql bo'lsa kerak, chunki insonlar iqtisodiy yetishmovchilikdan nolishadi, ammo ilmi



AYRIM  
FUQAROLARDA  
BOQIMANDALIK  
KAYFIYATI HALI  
HAM BORLIGI MENI  
TAAJJUBLANTIRADI.  
AFSUSKI, "MENGA  
DAVLAT QILIB BERISHI  
KERAK", DEGAN  
TUSHUNCHAGA EGA  
INSONLAR HAM BOR.

kamligidan nolishmaydi, shunday vaziyatlarda murojaatlar bo'lsa, ularga ko'proq ilm, kasb-hunar o'rganish bo'yicha tushunchalar berib boraman. Axir shu yurt fuqarosi sifatida davlatimiz rivoji uchun barchamiz birdek mas'ulmiz.

Mahallamiz aholisi chorvachilik va qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirib, qo'shimcha daromad manbayiga ega bo'lishadi. Bu yo'nalishda ham muammolar uchrab turadi, masalan, suv yetishmovchiligi. Muammo yuzasidan mahalladagi Qizilgul qishlog'ida

yashovchi Sirojiddin Zoirovga suv nasosi so'rab qilgan murojaati ijobiy hal qilib berildi.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida mahallada bepul shaxmat va voleybol to'garaklari yo'lga qo'yilgan. Undan tashqari, maktab ma'muriyati bilan hamkorlikda mahallada kichik kinoteatr tashkil etib kelinmoqda. Bunda aholining talab va xohishlariga muvofiq maktabning informatika xonasidagi katta monitor orqali kino qo'yilib boriladi. Mahalla markazidan uzoqda joylashgan Qizilgul qishlog'idagi yoshlar uchun stol tennis tashkili etib, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga hissa qo'shyapmiz. Mahallada Besh tashabbus olimpiadasidan tashqari voleybol va mini futbol bo'yicha "Mahalla kubogi" musobaqalari ham o'tkazib boriladi.

Albatta, har bir insonning hobbisi bo'lishi mumkin. Men ham ishdan bo'sh vaqtlarimda zargarlik bilan shug'ullanaman. Yetakchilik faoliyatimgacha asosiy daromadim ham hunarmandchilikdan bo'lgan. Hozir bu hunarga qiziqish bildirgan mahalla yoshlariga o'z hunarimni ham o'rgatib kelyapman.

Bugungi kunda yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar zamiirida davlatimiz siyosati har tomonlama yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotganiga barchamiz guvoh bo'lyapmiz. Bu kabi imkoniyatlarga javoban kuch-g'ayratimiz va shijo-atimiz bilan mustaqil O'zbekistonning rivojlanishiga munosib hissamizni qo'shmog'imiz lozim.



## "YOSHLAR DAFTARI" – IMKONIYATLAR DAFTARI

She'riy kitobimni chiqarish bo'yicha O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevning murojaatlar botiga qilgan murojaatim ijobiy hal etilib, nashriyotga shartnoma pullari to'lab berildi.

Yaqinda "Dil izhori" nomli kitobim 300 nusxada nashrdan chiqdi. Kitobimni chiqarishda yaqindan yordam bergani uchun Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevga, Yoshlar ishlari agentligi Surxon-daryo viloyati boshqarmasi boshlig'i Jamshid Choriyevga va agentlikning tuman bo'limi boshlig'i Abduvohid Xolto'rayevga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Minnatdorlik maktubi



Sevinchbek SAFAROV, Qumqo'rg'on tumani

# INSONNI ILM SHARAFLAYDI

Har bir sohaning o'ziga xos ilmi mavjud, o'sha ilmni egallamasdan turib yaxshi mutaxassis bo'lishning imkoni yo'qligi kundek ravshan. Deylik, kimdir dehqon, u qo'lga ketmon olib yer chopaverganidan dehqon bo'lib qolgani yo'q. Dehqonchilikning ham o'ziga yarasha sir-sinoati, ilmi bor. Ana shu tajribalarni o'rgana borish natijasida o'zida muayyan tajriba orttiradi. Oradan yillar o'tib mirishkor dehqonga aylanadi. Yoki duradgorlikni olaylik, avvaliga shogird tushadi, keyin ish o'rganadi, ko'nikmalarni egallaydi, bora-bora o'zi ham usta darajasiga yetadi. Ilm yo'lini tanlaganlar ham xuddi shunday...



Alaba kim? Tolibi ilmning birinchi galdagi vazifasi talab qilish, ya'ni izlanish. Tolibi ilmning eng go'zal xislati qiziquvchanlik. Mana shu qiziquvchanlik bilan izlanayotgan tolibi ilm oldida ajoyib bir savol paydo bo'ladi: bir Odam Atodan yaralganmi, bir dunyoda yashaymi, bir quyosh, bir oy, zamin bitta. Nega ilmni ikkiga, ya'ni diniy va dunyoviyga bo'ldik?!

Agarda ma'lum tushunchamizga asoslanib gapiradigan bo'lsak, hammasi bitta bo'lishi kerak. Bu dunyodagi mavjud barcha narsalar Odam bolalarining manfaatiga yo'naltirilgan deb bilamiz-ku. Har bir xatti-harakatimizning ma'no-mohiyatini anglab, ana shunga muvofiq yaxshi-yomonga ajratamiz. Bandalarning ma'naviy tarbiya topishiga to'g'ridan-to'g'ri dastur bo'lib nozil qilgan Alloh taolo moddiy tarafiga esa aynan bandalarning ixtiro-kashfiyotlar qilishida ularga ilhom berib, bosqichma-bosqich taraqqiyot omillarini yuzaga chiqarishi ma'lum qilinmoqda. Agar shu tarzda ilmni sayqallash me'yorida davom etaversa, holat kechagidan farq qilib ketaverar ekan.

Bir dalil keltiray, Andalusiyadagi (hozirgi Ispaniya) musulmon oilasida dunyoga kelgan Abbos ibn Firnavs milodiy 875 yilda "uchar uskuna" ixtiro qilib, 10 daqiqaga havoga ko'tarilib uchgan edi. Uning yozishicha, Qur'oni karimdag: "Tepalarida (qanotlari) yoyib va yig'ib (uchayotgan) qushni ko'rmaydillarmi? Ularni Rahmondan boshqa ushlab turuvchi yo'q. Albatta, U barcha narsalarni ko'ruvchidir" (Mulk surasi, 19-oyat), sababidan ilhomlanib uchar uskuna ixtiro qilishga kirishadi. O'sha olim o'z davrida ko'plab ixtirolar qilgan tarixdan ma'lum. Keyinchalik bu ixtirolar keyingi avlod vakillarida davom ettirilmay oradan naq ming yil vaqt o'tib ketdi.

Borliqdagi jami narsalar bir Zotning mulki ekan, ilm ham shu mulk sohibiniki bo'lsa-yu, nechun unda ilm ikkiga ajratilgan?! Aniqrog'i, odamlarning o'zi uni ikkiga ajratib qo'yishganligiga guvoh bo'lamiz. Sha'riat ilmi Alloh taolo tomonidan buyurilganligiga hammamiz ittifoq qilamiz. Xo'sh, unda dunyoviy ilm faqat bandalarga xosmi? Aslida bandaning o'zi Uning mulki hisoblangansa-yu, bandaning ilmi o'ziga xos bo'ladimi?

Misol uchun, matematika fanidan imtihon topshirayotgan talaba badiiy adabiyot haqida gapira boshlarsa, professor qabul qiladimi? Albatta, yo'q! Bu yerda diniy yoki dunyoviy ilmlarga cho'lg'ish emas, bu narsalar faqatgina kasbiy yo'nalish ekanligini ochiqlab olishimiz lozim.

Ilm ahliga ma'lumki, o'tmishda mutaassib dindorlar tomonidan dunyoviy, ya'ni jamiyat

**NAFSINI  
JILOVLASHGA  
QUVVATI BORLAR  
BAXTLI ODAMLAR,  
AMMO MA'NAVY  
TUSHUNCHASI  
O'ZIGA YARASHA  
BO'LGAN ODDIY  
ODAM HAM O'Z  
HAQINI ANIQ  
BILADI.**


hayotini taraqqiy ettiradigan ilm sohiblari qattiq qarshilikka uchraganlar. Nafaqat musulmonlarda, xristian mutaassiblari, hatto, shamanlarda ham ilg'or fikrli kimsalar aniq-tiniq johilliklar qurboniga aylangan. XVII asrga kelib diniy mutaassiblar ta'siridan xoli bo'lgan holda texnik ixtirolar, ilmiy kashfiyotlar asta-sekin zaminimizda yuz ko'rsata boshladi. Ana shu taraqqiyot egalari imkoniyatlari ochilgan sayin diniy soha vakillaridan tezlikda uzoqlasha borib, yangi davrni boshlab berishdi. Moddiy tomondan taraqqiyot yo'liga kirganlar ana shu moddiyot vositasida ma'naviyatini ham yuksaltirishni to'g'ri yo'l deb bilib, mutaassib dindorlardan uzoqlashishni ma'qul ko'rishdi.

Aslida-chi, mutaassiblik ham diniy, ham dunyoviy taraqqiyot oldidagi g'ov ekanini hisobga olishmadi. Mutaassibdan uzoqlashish to'g'riligini isbotlovchi taraqqiyot bor edi. Ammo Alloh taolo joriy qilgan ma'naviyatimizni sug'oradigan sha'riy ta'limotni tark etish katta xatoligini bugun rivojlangan g'arbning yetuk olimlari aniq bilib

qolishdi.

Nafsini jilovlashga quvvati borlar baxtli odamlar, ammo ma'naviy tushunchasi o'ziga yarasha bo'lgan oddiy odam ham o'z haqini aniq biladi. Hech qachon birovning haqiga qo'l uzatmaydi. Chunki unga hammasi aniq; har bir narsaning, albatta, so'roq-savoli bor.

Tarixdan ma'lumki, ona yurtimiz ko'plab ulug'larni voyaga yetkazgan. Ilmlar yaxlit shaklda o'rganilgan davrlarda ulamolarning makoniga aylangan bu yurt. Jamiyatda ziddiyatlar, qirg'inbarot urushlar bo'lgandir, ammo hech bir vaqtda ilm o'rgatish va o'rganish to'xtab qolgan emas, jamiyatda ilm nuri so'nmagan. Diniy va dunyoviy ilmlar o'rtasidagi had-chegarani bir o'ylab ko'raylik, bundan kimga foyda - kimga zarar. Vaqt bandalar qanday yo'l tutsa ham, Alloh taolo taqsimlagan shaklda




Abdulhamid JUMANOV,

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti katta o'qituvchisi

harakatlanaveradi. Zamon va makonda odam farzandi qadr-qimmatini belgilab beradigan ilmni e'zozlash bilangina o'z sharafini ziyoda qiladi. Alloh taolaga beadad hamdlar bo'lsinki, bugun mamlakatimiz rahbari har bir sohada ilm olishga keng sharoitlar yaratmoqda. Iqtidorli yoshlarning alohida qo'llab-quvvatlanishi esa nur ustiga nur.

"Yoshlar daftari" dan



**PUXTA BIZNES REJA BO'LSA BAS...**

Maktabni tamomlaganimdan keyin biroz muddat ishsiz yurdim, ko'p o'tmay Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun ketib, uch yil o'sha joyda bo'ldim. Qaytib kelganimdan keyin mahallamizdagi yoshlar yetakchisiga uchrashib, ish so'radim.

Yoshlar yetakchisi tadbirkorlikni yo'lga qo'yishimni aytib, buning uchun menga 33 million so'm imtiyozli kredit taqdim etilishi mumkinligini tushuntirdi. Taklifni qabul qildim. Menga ajratilgan pulga kerakli uskuna va zarur mahsulotlarni olib, mebel ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydim.

Bu ishni boshlash uchun avval ham harakat qilganman, lekin ko'plab to'siqlarga duch kelgandim. "Yoshlar daftari" menga imkoniyatlar eshigini ochdi. Hozirgi kunda puxta biznes reja bo'lsa bas, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda.

Muhriddin OSTONOV,

Narpay tumandagi "Haqiqat" mahallasi fuqarosi

## TIBBIYOTGA OID

So'nggi vaqtlar sog'liqni saqlash sohasida innovatsion loyihalar soni ortib bormoqda. Quyida ularning ayrimlari haqida ma'lumot beramiz.

# 10 TA STARTAP

Nurillo TO'XTASINOV tayyorladi

### 1. TYTOCARE

(AQSh)

2012-yildan beri TytoCare sun'iy intellekt yordamida tibbiy xizmatlarni taklif qilmoqda. Jumladan, platforma bemorlarga uyda turib to'liq ko'rik, tashxis va retseptlar olish imkonini beradi. Ayniqsa, 2020-yil global pandemiya TytoCare'ga katta o'sish va daromadning sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Qolaversa, 2021-yil loyihaga 50 million AQSh dollari miqdorida sarmoya ham jalb qilindi.

### 2. MODERN FERTILITY

(AQSh)

2017-yili yaratilgan startap – Modern Fertility ayollarga reproduktiv salomatlik va homiladorlik testlaridan ko'p miqdorda foydalanish imkoniyatini beradi. Hammuassislar Afton Vecheri va Karli Lixi ayollarning homiladorlik testini tekshirish qiymat va jarayon murakkabligiga guvoh bo'lganlaridan keyin loyihaga qo'l urgan. Bugungi kunda, loyihaning bahosi 22 million AQSh dollarini tashkil etadi.

### 3. EMBLEEMA

(AQSh)

Embleema startapi 2017-yildan buyon bemorlarga o'zlarining tibbiy ma'lumotlarini nazorat qilish imkonini taqdim etib keladi. Agar foydalanuvchi xohlasa o'z shifokorlariga ham shaxsiy kabinetiga kirish huquqini baham ko'rishi mumkin. Loyihaning qiymati 3,7 million AQSh dollariga baholangan.

### 4. HEADSPACE

(AQSh)

Headspace – meditatsiya va sog'lomlashtirish ilovasi bo'lib, u foydalanuvchilarga yo'naltirilgan meditatsiyalar va boshqalarni taqdim etadi. Startapga Endi Padikomb va Richard Pirson 2010-yil asos solgan. Tashkil etilganidan beri loyihaga 200 million AQSh dollaridan ortiq sarmoya kiritildi va tadqiqotchilar tomonidan ko'plab klinik sinovlarda foydalanildi.



“

LOYIHAGA APEX VENTURES VA ANTHEMIS EXPONENTIAL VENTURES KABI MOLIVAVIY TASHKILOTLAR TOMONIDAN DASTLABKI SARMOYA – 2 MILLION FUNT-STERLING BERILDI.

### 5. NOVOIC

(BUYUK BRITANIYA)

2019-yildan beri Novoic o'zlarining sun'iy intellektga asoslangan texnologiyasi orqali nevrologik kasalliklarni erta aniqlashni maqsad qilgan. Bu esa yillar o'tib Parkinson, Alzgeymer va boshqa shu turdagi kasalliklarga duchor bo'lgan odamlarda yuzaga keladigan farqlarni aniqlay oladi.

Loyihaga Apex Ventures va Anthemis Exponential Ventures kabi moliyaviy tashkilotlar tomonidan dastlabki sarmoya – 2 million funt-sterling berildi.

### 6. PAIGE.AI

(AQSh)

2018-yili yaratilgan Paige.AI o'z texnologiyasidan saratonga qarshi kurashish uchun foydalanadi. Ularning sun'iy intellekt texnologiyasi tibbiyot xodimlariga saraton kasalliklarini aniq tashxislash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim qiladi.

Startap loyiha kengashiga Memorial Sloan Kettering saraton markazi, Yel universiteti tibbiyot maktabi va boshqa muassasalar mutaxassislari kiradi.

### 7. WELLFRAME

(AQSh)

2011-yili asos solingan Wellframe loyihasi sog'liqni saqlash mutaxassislariga texnologiya orqali bemorlar uchun yordam ko'rsatishda ko'maklashmoqda. Platformada chat funksiyasi, vazifalarni boshqarish imkoniyatlari va moslashtirilgan kontent dasturlari mavjud. 2019-yil startap BlueCross BlueShield'ning 20 million AQSh dollarlik moliyaviy yordamini oldi.

### 8. PLUSHCARE

(AQSh)

PlushCare – jismoniy va ruhiy salomatlik ehtiyojlarini qondirish uchun bemorlarni shifokorlar bilan bog'laydigan telesog'liqni saqlash kompaniyasi. U 2015-yil tashkil topgan, telefon orqali yordam ko'rsatish, xususan, 99 AQSh dollarlik uchrashuvlar va malakali tibbiy mutaxassislar tarmog'iga ega.

### 9. DISPATCHHEALTH

(AQSh)

2013-yildan DispatchHealth uy sharoitida tibbiy xizmat ko'rsatadi. Kompaniyaning ilovasi, veb-sayti yoki telefon orqali bemorlar mutaxassislarni chaqirishlari mumkin. Shundan so'ng maxsus tibbiy guruh manziliga yetib boradi va kerakli davolanish usulini taklif qiladi. Bu yil DispatchHealth 200 million AQSh dollari miqdorida mablag' to'pladi va radiologiya xizmatlarini kengaytirdi.

### 10. HINGE HEALTH

(AQSh)

2015-yil Hinge Health tayanch-harakat apparati sohasidagi sog'liqni saqlash startap sifatida faoliyatni boshladi. U maxsus kiyiladigan moslamalari yordamida fizioterapevtlar va boshqa tibbiyot mutaxassislari bilan virtual aloqa o'rnatadi. Natijada, uyda fiziterapiya xizmatlarini olish mumkin. Hinge Health 2021-yil boshida 300 million AQSh dollarlik moliyalashtirish bosqichini yakunladi. Hozir uning qiymati 3 milliard AQSh dollariga teng.

## “NAJOT TA'LIM”NING ILK FILIALI OCHILMOQDA

Shahribonu RAHMATOVA



Yoshlarning zamonaviy kasblarni o'rganishiga ko'mak berayotgan "Najot Ta'lim" markazining viloyatlardagi ilk filiali Farg'onada ochilmoqda.

Mazkur filialda dasturlash, vebdizayn, marketing yo'nalishla-

rida ta'lim berilishi rejalashtirilgan. Unga 16 yoshdan 34 yoshgacha bo'lganlar IQ va ingliz tili bo'yicha imtihon asosida qabul qilinadi. Shu munosabat bilan markaz ta'limni yanada rivojlantirish istagida bo'lgan, muammo-

larga tanqidiy fikrlash orqali o'z o'rnida yechim bera oladigan va tartib-intizomli farg'onalik yoshlarni jamoaga taklif etmoqda.

Siz dasturlash foundation, grafik dizayn, frontend yo'nalishida tajribaga ega bo'lsa-

ngiz, kassa va o'quv bo'limi administratori, sotuv menejeri kabi lavozimlarda faoliyat olib borishni istasangiz jamoaga qo'shilishingiz mumkin. Batafsil ma'lumotni @najotalim telegram kanali orqali bilib olishingiz mumkin.

Shahribonu RAHMATOVA,  
Ziyoda RAHIMBOYEVA

# TEATR VA YOSHLAR

## MUAMMOSIGA XOLISONA NAZAR TASHLAYMIZ!

Tasavvur qiling, ko'chada ketyapsiz, kimdir sizga o'z-o'zidan ko'zgu tutdi, unda tashqi ko'rinishingizni ko'rishingiz mumkin. Uni sindirib tashlasangiz ham, u ko'rsatib turgan tasvirda hech nima o'zgarmaydi. Aslida esa kundalik hayotimizda shu ko'zgu kabi oshkora ko'rinib turgan muammolar juda ko'p, muhimi ularga tutilgan ko'zguni sindirmaslikdir...

### 1895

- Parijda san'atning "Kino" deb atalmish yangi yo'nalishi kashf etildi. Ko'pchilik bungan xursand bo'lish bilan birga, bir narsani bashorat qila boshladi - zamonaviy kino san'atining muxlislari tobora ko'payayotgan bir davrda teatr deb atalmish tushuncha yo'qlikka yuz tutadi. Endi avvalgidek tomoshabinlar teatrni emas, kino zallarini to'ldirishadi. Ammo oradan asrlar o'tsa hamki, teatrning tomosha zallari odamlar bilan to'raligicha turibdi, insonlar hanzu sahnada o'ynalayotgan pyesalarini qiziqish va hayajon bilan kuzatishyapti, ayniqsa, xalq tili bilan aytganda, "Bemaza qovunning urug'idek" ko'payib, shu bilan birga, saviya jihatdan ham sayozlashib borayotgan zamonaviy filmlardan qochib ham tarbiyaviy ahamiyati va sifati yuqori bo'lgan sahna asarlari tomoshabinni tobora o'ziga jalb etib bormoqda.

Biroq teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlarga qarasangiz, ularning ko'pchiligini katta avlod vakillari tashkil etadi. Albatta, Instagram, Tik-tok kabi ijtimoiy tarmoqlardan chekinib, kinodan teatrni ustun ko'rib kelgan yoshlarning oz bo'lsa-da bor ekanligi kishini quvontiradi.

**Haqli savol tug'iladi, yoshlarning qolgani qayerda? Jadid bobolarimiz "ibratxona" deb atagan maskanga kelishdan ularni nima to'xtatib turibdi?**

Ushbu muammoli masalaga ikki tomonlama va xolis nigoh tashlash uchun bugun "Ular nega teatrga kelmaydi?" va "Biz nega teatrga bormaymiz?" degan savollarga javob izladik!

**BA'ZAN DUNYONING KLASSIK ASARLARI SAHNAGA OLIB CHIQLSA HAM, TOMOSHABIN TEATR ZALINING UCHDAN BIR QISMIGINIGINA BAND ETISHI BIR GAP.**

### YANGILANISHLAR VAQTI YETIB KELGAN!



**Javohir AZIMOV,**  
O'zbek milliy akademik drama teatri yordamchi rejissyori:

- Har bir ijodkor o'z tamoyillari-ga, yaratilgan bunyod etish uchun maskaniga ega bo'ladi: yozuvchida yozuv stoli, rassom va haykaltaroshda ijodiy ustaxona, sozandalar-da ovoz yozish studiyasi. Teatr - rejissyor, aktyor, rassom, dramaturg, umuman, barcha ijod ahli ni o'zida birlashtira olgan mo'jizaviy makon. Tomoshabin hayot tarzi davomida guvohi bo'lgan va duch kelmagan hodisalar o'zgacha talqinda, yuk-saq qarashlar bilan talqin etilsagina teatr o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Xo'sh, men faoliyat olib borayotgan va poytaxtimiz, viloyatimizdagi teatrlar o'z vazifasini bajara olyaptimi? Bugungi kunda teatr tomoshabinining siyraklashgani hech kimga sir emas. Ba'zan dunyoning klassik asarlari sahnaga olib chiqilsa ham, tomoshabin teatr zalining uchdan bir qisminigina band etishi bor gap. Bu ahvolga yetib kelishimizga na dramaturg, na rejissyor, na aktyor va na tomoshabin aybdor. Mo'jizaviy makonni yana qayta jonlantirish uchun yangilanishlar vaqti yetib kelgan. Bu soha ilk teatr an'analari yurtimizga olib kirgan jaddilar uchun yangilik edi. Keyinchalik o'tgan asrning 60-70-yillarida jahon standartlariga to'la mos keladigan mahobatli sahna asarlari yurtimiz teatr sahnalarida paydo bo'ldi. Ayni damda ham yana bir pog'ona ildamlash fursati, yangilanish talabi har bir teatr uchun dolzarbligicha qolmoqda. Menimcha,

dramaturg zamonaning fusunkor voqealarini qalamga olsa, rejissyor sahna uchun avangard yechimlar topsa, aktyor o'z rollarini hayotiy, tabiiy ijro etsa, tomoshabin ham o'z vazifasini og'rinmay amalga oshiradi.

Ko'rinib turibdiki, tobora rivojlanib borayotgan axborot asrida teatrlar ham zamona bilan hamnafas bo'lishi zarur. Ayniqsa, doim bir qadam oldinda bo'lishni yoqtiruvchi qatlam - zamonaviy yoshlarni tomoshabin sifatida yo'qotmaslik uchun ham u shunga majbur, desak mubolag'a bo'lmaydi. Muammoga yondashishda xolislikni saqlash maqsadida yoshlarimizning ham teatr haqidagi mulohazalariga quloq tutdik.

### KELING, YECHIM IZLAYMIZ!



**Munira QO'ZIBOYEVA,**  
O'zJOKU talabasi:

- Teatr va yoshlar. Bu jumla ni o'qigan inson xuddi ikkita qarama-qarshi jumlagacha duch kelgandek his etadi o'zini. G'alati, ammo haqiqat! Shunday emasmi? Shaxsiy fikr sifatida keltira olamanki, har safar teatrga borganimda guvoh bo'lib qaytaman: bugun teatrning sodiq muxlislari yoshi kattalar bo'lib qolmoqda. Savol tug'iladi: tomoshabinlar orasida yoshlarning yo'qligiga kim yoki nima aybdor?

Darrov "Yoshlar zamonaviylashib ketgan, ular uchun teatr zerikarli joy" deyishga shoshilmang! Aslida ham-ma davrlarda ham teatr o'zining yosh muxlislarga ega bo'lgan. Lekin hozir teatr ularni ushlab qolishda ojizlik qilmoqda. Balki befarqlik ham! Keling, muammodan uzoqlashmagan holda yechim izlasak!

Birinchidan, yoshlar uchun, ya'ni talaba-yoshlar uchun biletnarxlarini ma'lum bir foizda chegirna qilish kerak. Sababi shaharlardagi yoshlarning asosiy qismini talabalar tashkil etadi. Shuni hisobga olib, narxlar ularga arzonlashtirilgan holda taqdim etilsa, nur ustiga nur bo'lardi. Bitta biletning narxi o'rta hisobda 50 ming bo'lsa, talaba o'ylab ham o'tirmay uning o'rniga "Fast-food"ga yoki boshqa ko'ngilochar joyga borishni afzal ko'radi.

Yana bir jihat, millionlab pul sarflanadigan, vaqt ajratiladigan tadbirlar ro'yxatini sanab ado etish qiyin! Bugun tomoshabin o'tiradigan o'rindiqlari allaqaysi zamonalarga mansub, yozning jaziramasida tuzukroq sovutkich bilan ham ta'minlanmagan tomosha zallariga (hali parda ortidagi sharoitlar bizga qorong'i) shu tadbirlarchalik e'tibor qaralilib, mablag' ajratilsa bormi?..

Ikkinchidan, teatrlarga yaxshi SMM mutaxassislarini jalb etish zarur! Ular kuchli PRga muhtoj. Ya'ni to'g'ri ma'nodagi PRga. Ko'proq Instagram tarmoqlarida yoshlar auditoriyasiga targ'ib qilinsa, ancha-muncha yoshlar qiziqsa kerak.

Uchinchidan, teatr ulug' dargoh ekanligi va ma'naviyatimizda muhim rol o'ynashini yoshlarga oilada, maktablarda to'g'ri singdirish zarur. Maktab bolalari uchun har oy tekinga teatr tomoshalari qo'yilsa, ularning ongida bu joyga nisbatan hurmat va muhabbat ruhi paydo bo'ladi.

Muammolarga yuzlanish va tik boqishning yaxshi jihati shuki, yechim ham tez orada topiladi. Ushbu maqolani o'qib chiqqan bo'lsangiz, qator muammolar va ularga berilgan yechimlarni taklif sifatida qabul qila olasiz. Yoshlarni yana teatrga, ushbu dargohning esa yana avvalgi nufuziga qaytishiga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin, bu siz va bizning qo'limizda!

## YAGONA MAKTAB FORMASI:

Muhayyo TOSHQORAYEVA,  
O'ZA muxbiri

# QULAY, BO'LISHI KERAK

ESTETIK JIHATDAN  
JOZIBADOR VA HAMYONBOP

Yangi o'quv yili oldidan ota-onalar farzandi uchun maktab formasi xarid qiladi. Turli korxonalar tomonidan tayyorlanayotgan maktab formalarining narxi va sifati bu borada muhim ahamiyatga ega.


Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-maydagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasini bilan ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joriy o'quv yilidan boshlab xalq ta'limi maskanlarida o'quvchilar uchun yagona maktab formasini to'liq joriy etish belgilangan.

2022/2023-o'quv yilida davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi 6 million 620 ming o'quvchining formaga bo'lgan ehtiyoji mavjudligi aniqlandi. Ular uchun 500 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalarini tanlab olindi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, aniqlangan 400 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun maktab formalari mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari, shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari mablag'lari hisobidan sotib olinadi.

Mutaxassislarining so'zlariga ko'ra, maktab formasi sifati "O'zstandart" agentligi tomonidan nazoratga olinadi. Maktab libosi namunalari "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ilg'or dizaynerlar jalb qilingan holda ishlab chiqiladi. Shuningdek, o'quvchilar uchun qanchalik qulayligi va chidamlilik inobatga olinadi.

Xalq ta'limi vazirligi va "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi



hamkorligida umumta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasini tayyorlashga oid jarayonlar bilan ommaviy axborot vositalari xodimlarini tanishtirish maqsadida Namangan viloyatiga press-tur tashkil etildi.

Press-tur ishtirokchilari Namangan shahridagi "Dashtbog" mahallasida barpo etilgan kichik sanoat zonasida hududida joylashgan "Mustafa Sewing" hamda "Saxiy Mirzo tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Mazkur ishlab chiqarish korxonalarida tadbirkorlar tomonidan maktab formalarining belgilangan standartlar asosida tayyorlanishi, matolar sifati, bichimi, rangi,

tikilish uslublari, maktab formalarining turli yosh, bo'y va vazniga ega o'quvchilarga mosligi yuzasidan batafsil ma'lumotlar taqdim etildi.

Ishlab chiqaruvchilar maktab formasini qulay, estetik jihatdan jozibador va hamyonbop bo'lishiga harakat qilishmoqda. Zero, maktab formasini psixologik jihatdan bilim olishga moyillikni oshirishi kerak.

Maktab formasi joriy etilishidan maqsad o'quvchilarning bilimli, odob-axloqli, sog'lom fikrli, har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashish, o'zaro tenglik va belgilangan tartib-qoidalariga itoatkorlik hisini uyg'otish, ularning salomatliklarini muhofaza qilish uchun shart-sharoit yaratish, o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirishdan iborat, - deydi Xalq ta'limi

vazirligi axborot xizmati rahbari Laylo Rustamova. - Har bir ota-onalar farzandini maktabga kiyinish madaniyatiga va belgilangan talablarga muvofiq holda borishini ta'minlashi, farzandlarining yorqin kelajagi uchun javobgarlikni o'z bo'yinlariga olgan holda mas'uliyat bilan yondashishlari lozim.

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi dizaynini rivojlantirish bo'limi boshlig'i Kamola G'ulomovaning ta'kidlashicha, respublikada tahsil oluvchi 6 million 620 ming o'quv-



chini yagona maktab formasini bilan to'liq ta'minlanishida muammo bo'lmaydi. Tadbirkorlar mahalliy va Xitoydan olib kelingan matolar bilan ta'minlangan.

Maktab formalarining dizaynlarini yaratishda ishtirok etganman, - deydi Kamola G'ulomova. - Bu borada tashkil etilgan konkurslarda O'zbekiston bo'yab mingga yaqin korxonalar o'z dizaynlari bilan ishtirok etgan. 50 ga yaqin dizayn orasidan 10 ga yaqini ajratib olinib, tajriba-sinovdan o'tkazilgan. Keyin ota-onalarning fikrlariga asosan, bir xil ko'rinishdagi maktab formasini tanlab olingan. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan respublikadagi ishlab chiqarish korxonalar quvvati o'rganib chiqilgan. Ayni vaqtda mazkur tikuvchilik markazlarida maktab formalari tayyorlash ishlari belgilangan tartib va standartlar asosida olib borilmoqda. Shuni qayd etish lozimki, maktab formalariga qo'yiladigan talablar mavjud. Avvalo, forma uchun tanlab olinadigan mato tarkibi 65-70 foiz toza paxtadan tashkil topgan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, "O'zstandart" agentligi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi maktab formasining belgilangan standartlarga, sanitar-tarix qoidalari va gigiyena normativlariga muvofiq sifatlari to'qimachilik mahsulotlaridan tayyorlanishi ustidan nazorat o'rnatadi.

Shuningdek, 2022-yil 10-avgustdan har bir tuman va shaharda maktab formasini ishlab chiqaruvchilarning savdo shoxobchalari tashkil etiladi.

EHTIYOJMAND  
OILALAR FARZANLARI  
UCHUN MAKTAB FORMALARI  
MAHALLIY BYUDJETNING  
QO'SHIMCHA MANBALARI,  
SHUNINGDEK, "TEMIR DAFTAR",  
"AYOLLAR DAFTARI" VA "YOSHLAR  
DAFTARI" JAMG'ARMALARI  
MABLAG'LARI HISOBIDAN  
SOTIB OLINADI.



## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

Muassis:  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Sardor  
SA'DULLAYEV**

Musahihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

"Shara" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma - O-755. Adadi - 10598. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimizga o'tish  
uchun QR-kodni  
telefoningiz orqali  
skaner qiling.

